O'zbekiston iqtisodiyotida, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi so'nggi o'zgarishlar va islohotlar soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida adolatli hamda samarali soliq munosabatlarini o'rnatish zarurligini yanada ko'proq namoyon etmoqda. Soliq solishning shaffofligi, tizimdagi barqarorlik va soliq to'lovchilarning qonunchilik oldidagi teng huquqliligi davlat va fuqarolar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga, shuningdek iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Soliq munosabatlari faqat davlat byudjeti manfaatlariga emas, balki soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlariga ham asoslanadi. Soliqlar iqtisodiy faoliyat uchun muhim vosita bo'lib, ular davlatning barqarorligini ta'minlash, jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va iqtisodiy rivojlanishga turtki berishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, soliq to'lovchilarning soliq solish jarayonini ijobiy qabul qilishi va soliqlarni vaqtida to'lashi soliq tizimi samaradorligining muhim omillaridan biridir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan soliq sohasidagi islohotlar soliq munosabatlarini yanada shaffof va samarali qilishga qaratilgan. Davlat va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish nafaqat byudjetga tushumlarni oshirish, balki umumiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Soliq qonunchiligini takomillashtirish, soliq organlari faoliyatini samarali va oshkora tashkil etish hamda soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish orqali soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi ishonchli munosabatlarni shakllantirish mumkin.

Shuningdek, soliq solishning zamonaviy metodlarini joriy etish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, soliq ma'murchiligini avtomatlashtirish kabi chora-tadbirlar soliq munosabatlarini optimallashtirish va soliq solish jarayonini osonlashtirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida soliq to'lovchilarning qonuniylikka rioya qilish darajasini oshiradi va soliq tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Hozirgi sharoitda soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish va adolatli soliq tizimini shakllantirish orqali mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini ta'minlash mumkin. Shu bois, soliq siyosatida shaffoflik, tenglik va adolat tamoyillari asosida ishlab chiqilgan yondashuvlar iqtisodiy rivojlanishning muhim kafolati hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarning mohiyati va konseptual asoslari A. S. Advokatova, A. A. Batarin, A. A. Sorokin, L. I. Goncharenko, I. A. Mayburov, V. M. Oparin, L. P. Pavlova, V. G. Panskov, A. M. Sokolovskaya, D. G. Chernik va boshqa olimlarning ishlarida tahlil qilingan.

O'zbekistonda ham soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish masalalariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar mavjud. A. Vaxobov, A. Jo'rayev, I. Niyozmetov, U. Pardev, G. Safarov, F. Isayev, S. Xudoyqulov va U. To'lakov kabi o'zbek olimlari soliq tizimini takomillashtirish, soliq munosabatlarining samaradorligini oshirish, soliq yuki va uning iqtisodiy ta'siri kabi masalalar bo'yicha tahlil va tadqiqotlar olib borishgan. Ularning ishlari O'zbekistonda soliq munosabatlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq, soliq organlari va soliq to'lovchilar manfaatlarini muvofiqlashtirish, ular o'rtasida adolatli munosabatlarni shakllantirish va amalga oshirishning nazariy-metodologik asoslari hali ham yetarlicha chuqur tadqiq qilinmagan. Ushbu yo'nalishdagi tahlil va ilmiy tadqiqotlar soliq tizimini takomillashtirish, soliq yukini optimallashtirish hamda soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida ishonchli munosabatlarni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda umumiy ilmiy usullar – dialektik, sintez va qiyoslash usullari qo'llanildi, bu esa muammoni kompleks tahlil qilish va turli nuqtai nazarlarni birlashtirishga yordam berdi. Shuningdek, maxsus usullar – formal-mantiqiy tahlil va huquq normalarini talqin qilish usullari qo'llanilib, soliq qonunchiligining mohiyati hamda uning amaliyotdagi tatbiqini chuqurroq anglashga imkon berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotimiz avvalida qayd etish joizki, soliq munosabatlarini rivojlantirishning hozirgi bosqichida soliq organlari va soliq to'lovchilar manfaatlarini tenglik asosida amalga oshirish uchun ikki asosiy yo'nalishga e'tibor qaratish zarur. Birinchisi — soliq xavflarini kamaytirish bilan bog'liq; ikkinchisi esa soliq munosabatlari subyektlarining soliq madaniyatini oshirishga qaratilgan.

Soliq qonunchiligidagi doimiy o'zgarishlar, xususan O'zbekiston qonunlari bilan kiritilgan ayrim o'zgarishlar har ikki tomon uchun – ya'ni qoidalarni belgilaydigan davlat uchun ham, ularga bo'ysunuvchi soliq to'lovchilar uchun ham ma'lum xavf unsurini olib keladi. Shu munosabat bilan ta'kidlash mumkinki, soliq xavflari zamonaviy soliq tizimida reallikka aylangan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida olimlar soliq xavfini tadbirkorlik subyekti sifatida soliq to'lovchi nuqtai nazaridan tahlil qilar ekan, uni soliq to'lovchining soliq solish va soliq to'lash jarayoni bilan bog'liq ehtimoliy yo'qotishlar (zararlar) xavfini qabul qilish xususiyatlarini aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya sifatida ta'riflaydilar. Shuningdek, ular soliq xavfini soliq munosabatlari subyekti uchun soliq solish jarayoni bilan bog'liq moliyaviy va boshqa yo'qotishlar xavfi deb tushunadilar. Bu xavf soliq to'lovchining amaldagi huquq normalariga asoslangan holda kelgusidagi vaziyatlarni prognoz qilishdagi salbiy chekinishlar tufayli sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni o'z ichiga oladi [1].

Ta'kidlash joizki, soliq xavflariga arifmetik xatolar yoki qonunchilikning ayrim normalarini tushunmaslik oqibatida yuzaga kelgan yo'qotishlarni kiritish mumkin emas. Soliq to'lovchilar uchun soliq xavflari soliq yukining oshishi xavfini anglatadi, chunki soliq organi shartnomani haqiqiy emas deb tan olishi yoki soliq to'lovchi qonuniy deb hisoblagan soliq hisob-kitobini noqonuniy deb topishi mumkin. Agar soliq organi soliq va yig'imlar to'g'risidagi qonunchilikni soliq to'lovchi uchun noqulay talqin qilsa, soliq to'lovchi kutilganidan yuqori bo'lgan soliq yukiga duch kelishi mumkin. Bundan tashqari, bu yukning ortishiga yashirin va aniq bo'lmagan soliq to'lovlarini ko'paytirib to'lash ham ta'sir qilishi mumkin; bu esa bahsli holatlarda soliq to'lovchining xavfsizlik chorasi sifatida soliq to'lovlar summasini oshirib ko'rsatishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida (SK) shaxsning soliq huquqbuzarligini sodir etishdagi aybini yengillashtiruvchi holat sifatida unga taqdim etilgan shaxsiy soliq maslahati e'tirof etilgan norma mavjud. SKning 21-moddasiga ko'ra, soliq munosabatlari masalalariga oid o'z manfaatlarini shaxsan yoxud soliq maslahatchilari tashkiloti yoki boshqa vakillari orqali ifodalash (soliq agenti yoki uning mansabdor shaxsi) mumkinligi belgilab qo'yilgan. Bu norma soliq maslahatchilariga qonun bilan berilgan vakolatlar protsessual kodekslarga kiritilmagani bois amaliyotda ishlamaydi [14].

"Soliq maslahati to'g'risida"gi qonunda soliq maslahatchisiga soliq organlari, prokuratura va hatto tergov yoki sud organlarida ham soliq to'lovchining vakili sifatida ishtirok etishiga ruxsat berilgan [12]. Qonun qabul qilinganiga 18 yil bo'lishiga qaramay, shu kungacha hech qaysi protsessual kodeksda (Jinoyat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeks) soliq maslahatchisi vakil sifatida ishtirok etishi belgilangan bo'lmagani sababli sudlar maksimal darajada soliq maslahatchisini sudda qatnashtirmaslik pozitsiyasida turadi. Bu esa tadbirkorning sudda tezroq mag'lub bo'lishiga zamin yaratadi.

Bu ishlamayotgan normalardan biri sifatida munozarali vaziyatlarda audio va videoyozuvlarni yozib olish mumkinligi haqidagi norma keltiriladi. Protsessual kodekslarda audioga yozish huquqi va videoga olish sudyaning ruxsati bilan amalga oshirilishi belgilangan. "Soliq maslahati to'g'risida"gi qonunda esa bu soliq maslahatchisining huquqi deb belgilangan va soliq maslahati tashkiloti audio va videoga yozib olishi mumkinligi qayd etilgan. Bu huquq ham hech qaysi protsessual kodeksga kiritilmagan.

Soliq organlari ishtirokidagi barcha ishlarning ma'muriy sudlarga o'tkazilishiga oid tartib buzilmoqda, bu esa tadbirkorning ziyoniga qarorlar chiqarilishiga olib kelmoqda. Iqtisodiy sudlar tomonidan soliq organlari ishtirokida ko'rilayotgan ishlar ma'muriy sudlar yurisdiksiyasiga o'tkazilishi belgilab qo'yilgan bo'lsa-da [19], hozirda ma'muriy sudlarda bekor qilingan qarorlar to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy sudda ko'rib, soliq majburiyati yuklatilgan holatlar kuzatilmoqda.

Bu holatlar soliq to'lovchilar uchun huquqiy aniqlikni ta'minlash o'rniga, aksincha, qo'shimcha noaniqlik va xavotirlar keltirib chiqaradi. Soliq maslahatchilari asosida harakat qilgan taqdirda ham soliq to'lovchining javobgarlikka tortilishi soliq to'lovchilar uchun huquqiy xavflarni oshiradi hamda soliq maslahatlarini ishonchli huquqiy himoya vositasi emasligi yoki yuridik kuchining kamligini shubha ostiga qo'yadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasini inobatga olgan holda, SKning 21-moddasini quyidagicha to'ldirishni zarur deb hisoblaymiz: birinchi navbatda, beriladigan maslahat va tushuntirish uchun javobgarlikni shu maslahatni taqdim etgan soliq organiga yuklagan holda punkt kiritish lozim. Bu soliq to'lovchilarni tushuntirishning kutilmagan o'zgarishlaridan himoya qiladi. Ikkinchidan, soliq to'lovchilarga faqat soliq qonunchiligini tushuntirish bo'yicha emas, balki muayyan shartnoma yoki bitimning qonuniyligi bo'yicha ham so'rov bilan murojaat qilish imkoniyatini beradigan punktni kiritish kerak. Bu biznes uchun huquqiy aniqlik va barqarorlikni ta'minlab, tadbirkorlik faoliyatidagi xavflarni kamaytiradi.

Soliq qonunchiligidagi noaniqliklar sharoitida soliq organlari va soliq to'lovchilar manfaatlarini muvofiqlashtirish hamda iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda muhim jihat — soliq xavflarini boshqarishning samarali strategiyasini ishlab chiqishdir. Soliq xavflarini samarali boshqarish tizimi nafaqat xavf manbalarini aniqlashni, balki uning turlarini va kamaytirish yo'llarini belgilashni ham o'z ichiga olishi kerak. Risklarga yo'naltirilgan yondashuv byudjet daromadlar bazasini mustahkamlash va soliq ma'murchiligini yaxshilashda asosiy yo'nalish sifatida ko'rilishi lozim. Bu g'oya asosida soliq organlari ishini tashkil etishni yaxshilash bo'yicha



chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirishni tavsiya etamiz. Bu tavsiyalar soliq to'lovchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan: soliq organlari ishiga da'volarning yo'qligi, so'rovlarni tezkor ko'rib chiqish, ortiqcha to'langan soliqlar va yig'implarning o'z vaqtida qaytarilishi va hokazolar [6].

Umuman olganda, soliq organlari va soliq to'lovchilar manfaatlarini muvofiqlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar quyidagi vazifalarni belgilash va hal etishni o'z ichiga olishi kerak:

- soliq tizimini boshqarishning barcha darajasida qonunchilikdagi ziddiyatlarni bartaraf etish yoki ularni maksimal darajada kamaytirish;
- soliqlar va yig'implar to'g'risidagi qonunchilikka kiritiladigan o'zgarishlarni malakali ekspertizadan o'tkazish;
- soliq qonunchiligiga kiritilishi ko'zda tutilgan o'zgarishlarning jismoniy va yuridik shaxslar uchun soliq yuki miqdoriga ta'sirini to'liq baholash;
- soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar natijasida byudjet tizimiga tushmay qolgan soliq tushumlari ko'rinishidagi yo'qotishlarni to'liq baholash;
- soliqlar va yig'implar (majburiy to'lovlar) to'g'risidagi qonunchilikni muntazam monitoring qilish va undagi ziddiyatlarni aniqlash;
- soliq to'lovchilar uchun onlayn platformalarni takomillashtirish, elektron deklaratsiyalarni qabul qilish va ko'rib chiqish jarayonlarini soddalashtirish;
- soliq organlari va to'lovchilar o'rtasida ochiq dialogni ta'minlash, maslahat berish markazlarini tashkil etish;
- soliq organlari xodimlarining mas'uliyatini oshirish, korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni kuchaytirish;
- soliq boshqaruvdagi eng yaxshi xalqaro amaliyotlarni tahlil qilish va milliy tizimga moslashtirish;
- soliq to'lovchilar uchun soliq imtiyozlarini samarali taqsimlash;
- murojaat va shikoyatlarni ko'rib chiqishda ochiqlikni ta'minlash, sudsiz tartibda nizolarni hal qilish mexanizmlarini joriy etish;
- kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun soliq stavkalarini iqtisodiy holatga va aholi manfaatlariga moslashtirish;
- jamoatchilik orasida soliq to'lashning ahamiyati haqida targ'ibot ishlarini olib borish, qonuniylikka rioya qilish madaniyatini shakllantirish.

Shunday qilib, soliqlar va yig'implar to'g'risidagi qonunchilikka kiritiladigan o'zgarishlar ham soliq to'lovchilar, ham davlat uchun xavf omili bo'lishi mumkin. Shuning uchun qonunchilikka o'zgarishlar kiritishda ularni "Pareto samaradorligi" mezoniga muvofiqligini tekshirish lozim. Bu mezonga ko'ra, hech kimga zarar yetkazmaydigan va ayrimlarga (ularning shaxsiy baholariga ko'ra) foyda keltiradigan har qanday o'zgarish yaxshilanish deb hisoblanadi.

Shu bilan birga, soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi soliq munosabatlarini muvofiqlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan eng muhim omil — soliq qonun hujjatlaridagi ziddiyatlarni bartaraf etishdir.

Quyida soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi soliq munosabatlarini muvofiqlashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan eng muhim omillar keltirilgan:

1-jadval. Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir qiluvchi asosiy omillar

Omillar	Tavsifi	Soliq organlariga ta'siri	Soliq to'lovchilarga ta'siri
1. Qonunchilikdagi tushunmovchiliklar	Soliq qonunchiligidagi noaniqliklar va noto'g'ri talqinlar	Soliq tushumlarini to'g'ri va o'z vaqtida nazorat qilish murakkablashadi	Soliq majburiyatlarini bajarishda xato qilish ehtimoli ortadi
2. Soliq yukining ortiqcha darajada yuqori bo'lishi	Soliq miqdorlarining haddan tashqari katta bo'lishi	Soliq yig'implarini oshirish uchun jadal nazorat qilish zarurati	Soliqdan qochish yoki yashirin faoliyat yuritishga intilish
3. Soliq tizimining murakkabligi	Soliq qonunlari va tartiblarining qiyin va tushunarsiz bo'lishi	Soliq organlari uchun nazorat jarayoni murakkablashadi	Soliq to'lovchilarda tushunmovchilik va hujjatlarni to'g'ri to'ldirishda qiyinchiliklar
4. Soliq maslahatlarining yetishmasligi	Soliq masalalari bo'yicha aniq va to'liq maslahatlar olishning cheklanganligi	Soliq organlari uchun tushuntirish va maslahat berish majburiyati ortishi	Soliq to'lovchilarning noto'g'ri maslahatlar olish orqali xato qilishlari

Soliq organlari va soliq to'lovchilarning manfaatlarini soliq madaniyatini yaxshilash orqali muvofiqlashtirishni ko'rib chiqar ekanmiz, soliq madaniyati – bu bozor iqtisodiyotiga xos, jamiyatdagi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa ekanligini ta'kidlash joiz. Uning darajasi davlatning fiskal potensialini belgilaydi.

Soliq madaniyati fuqarolarning milliy, hududiy va mahalliy vazifalarni moliyalashtirishdagi ijtimoiy mas'uliyatini soliqlarni to'lash orqali namoyon etadi. Oddiy holda, soliq madaniyatini muhokama qilganda, mentalitet, axloq va intizom masalalari ko'tariladi. Ushbu jihatlarning mantig'i shundaki, ular soliq to'lovchilardan ham, soliq organlaridan ham o'z vazifalarini vijdonan bajarish talabini qo'yadi [7].

Soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi munosabatlar, jamiyatning psixologik tayyorgarligi soliqlarni to'lash zarurligini anglashga bevosita ta'sir ko'rsatadigan fikr aksiomaga aylanmagan. O'z navbatida, aholining soliq madaniyati darajasi davlat bilan munosabatlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Rivojlangan davlatlar bilan solishtirilganda, O'zbekistonda soliq to'lash amaliyoti va soliq to'lashga oid madaniyat asta-sekin shakllanib bormoqda. Bu holat fuqarolarning psixologik xususiyatlari bilan emas, balki tarixiy-iqtisodiy sharoitlar va mavjud tizimning bosqichma-bosqich rivojlanib borayotgani bilan izohlanadi. Umuman olganda, har qanday inson uchun o'z mehnati evaziga topgan daromadini boshqalarga ajratish oson jarayon emas. Soliqni ixtiyoriy ravishda to'lash masalasi esa o'ziga xos, murakkab mexanizmlarga ega bo'lib, tizimning ham, jamiyatning ham birgalikdagi rivojlanishini talab etadi.

Birinchi navbatda, qonunchilik texnikasining rivojlanish darajasi har doim jamiyatning huquqiy madaniyatining ishonchli ko'rsatkichi hisoblangan. Qonunchilik hujjatlarini qabul qilish va ularga tez-tez o'zgartirishlar kiritish amaliyoti (masalan, SKga har oyda sezilarli o'zgartirishlar kiritilishi) – soliq solish sohasida jamiyatimiz huquqiy madaniyati hali ham past darajada ekanligining yana bir misoli. Shuning natijasida, agar qonun chiqaruvchining o'zi hali zarur soliq madaniyati darajasiga erishmagan bo'lsa, soliq to'lovchi o'z vazifalariga mas'uliyat bilan yondoshishi mumkinmi degan savol tug'iladi.

Qonun chiqaruvchining sifatsiz ishida, avvalgidek, soliq organlari nuqtai nazaridan aybdor soliq to'lovchi bo'lib qolmoqda. Qonun chiqaruvchining ishidagi kamchiliklarni tuzatish, ya'ni o'zga vazifani bajarishga majbur bo'lgan sud tizimidir. O'zbekiston hukumati, byudjetni saqlab qolishni xohlab, avvalgidek faqat soliq to'lovchilarning itoatkorligiga umid qilmoqda. Bu vaziyatdan huquqiy, ya'ni sivilizatsiyali chiqish yo'li – mavjud ziddiyatlarni sud organlarida ko'rib chiqishdan iborat.

Ikkinchidan, ideologik jihat – soliq to'lovchi to'lagan soliqlar qaysi maqsadlarda va qanday ishlatilayotganini bilishi kerak hamda soliq tizimi bilan soliqlar hisobiga moliyalashtiriladigan davlat va mahalliy xizmatlar sifati yaxshilanishi natijasida hayot sifati yaxshilanishi o'rtasidagi bog'liqlikni aniq anglashi lozim. Ushbu masalalar ijobiy hal etilganda, soliqlar vijdonan to'lanadi, hatto soliq qonunchiligi to'liq mukammal bo'lmasa ham.

Soliq solish sohasidagi barcha muammolarni hal etish soliq organlari tizimini ham o'z ichiga olishi kerak. Soliq madaniyati – bu o'zaro bog'liq jarayon. Soliq inspektorida ham, soliq to'lovchida ham madaniyat bo'lishi zarur. Vaholanki, Soliq qo'mitasining asosiy vazifalaridan biri – soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish, soliqqa oid huquqbuzarliklarning profilaktikasi, ularni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks tadbirlarni bajarishdir [13].

Davlat, tadbirkorlar va fuqarolar soliq faoliyatida raqib emas, balki sheriklar bo'lishga intilishi kerak. Bizning fuqarolarimiz nazdida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi hanuz faqat fiskal funksiyani bajaradigan jazolovchi organ sifatida emas, aksincha haqiqiy ma'noda "Soliqchi – tadbirkorga ko'makchi" tamoyilining egasi bo'lishi zarur. Soliq to'lovchilarimiz esa o'z navbatida "insofli soliq to'lovchi"ga aylanishi kerak. Shundagina soliq organlari "Soliq xizmati – insofli soliq to'lovchilarning ishonchli hamkori" tamoyili asosida qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etib, insofli soliq to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi kuchaytiriladi, soliq nazorati mexanizmlari yanada samarali va adolatli yo'lga qo'yiladi. Bu orqali soliq to'lovchilar bilan soliq organlari o'rtasida ishonchli va o'zaro manfaatli munosabatlar shakllanadi, shuningdek soliq tizimida shaffoflik va qonuniylik ta'minlanadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Umuman, soliqchilar o'z dunyoqarashini o'zgartirib, mahalladagi katta imkoniyatlarni ishga solishi, faqat va faqat tadbirkorlarga sharoit qilib berishlari lozim bo'ladi. Shuningdek, alohida ochiq-oshkora platforma yaratib, soliqchilar ko'rsatgan xizmatlar sifatiga tadbirkorlarning o'zi baho beradigan tizimni yo'lga qo'yish lozim" [21].

Fuqarolarning soliq qonunchiligi talablarini ixtiyoriy va ongli ravishda bajarishga tayyorlik darajasi Soliq qo'mitasi organlarining jamoatchilik tasavvurida qanchalik xolis, samarali va ta'sirchan faoliyat olib borishiga bevosita bog'liq. Soliqlarni to'g'ri to'lash hamma uchun foydalidir. Byudjetga soliqlarni to'g'ri to'lagan holda, soliq to'lovchi o'z to'lovlarini optimallashtiradi va jarimalar, qo'shimcha hisob-kitoblar hamda moliyaviy sanksiyalar bilan bog'liq yo'qotishlarni kamaytiradi. Soliq qo'mitasi barcha to'lovlarni belgilangan talablarga qat'iy muvofiqlikda amalga oshirilishini ko'zlaydi, chunki har qanday tartibli faoliyat eng yaxshi natijalarni beradi. Buning barchasi soliq organlari tomonidan tushuntirish ishlarini olib borishni, shuningdek to'plangan soliq tartibga solish tajribasini umumlashtirishni va bu asosda, ko'p yillik jahon soliq faoliyati amaliyotini inobatga olgan holda, mamlakat soliq xizmati rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlarini belgilash zarurligini nazarda tutadi [8].



XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq organlari va soliq to'lovchilar bilan adolatli munosabatlarni yo'lga qo'yishning asosiy maqsadi ularning amaldagi soliq solish jarayonini ijobiy qabul qilishi, shuningdek soliqlarni o'z vaqtida to'lashga roziligini ta'minlash bo'lishi kerak. Bunda asosiy urg'u soliq solish jarayonining shaffofligi, qonunchilikka rioya qilishning aniqligi va soliq yukining adolatli taqsimlanishiga beriladi.

Soliq organlari tomonidan soliq to'lovchilarga ishonchli va xolis munosabat ko'rsatilishi, ularning qonuniy manfaatlari himoya qilinishi orqali soliq solish jarayoniga nisbatan ishonch ortadi. Bunday maqsadga muvaffaqiyatli erishish quyidagilarni talab etadi:

- soliq solishning hozirgi holatiga jamoatchilik fikri va munosabatini o'rganish hamda hisobga olish;
- soliq solish sohasida qarorlar qabul qilishga soliq to'lovchilarni jalb etish;
- aholi va soliq to'lovchilarning xabardorlik darajasini oshirish;
- qonunchilikni takomillashtirish va xavflarni kamaytirish;
- axborot-kommunikatsiya xizmatlarini takomillashtirish;
- doimiy soliq ta'limini joriy etish;
- soliq madaniyatini yuksaltirish.

Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida adolatli hamda hamohang munosabatlarni yo'lga qo'yish nafaqat soliq tizimining samaradorligini oshiradi, balki umumiy iqtisodiy barqarorlik va jamiyat farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunda har ikki tomonning manfaatlarini hisobga olish, ochiq muloqot va hamkorlikka asoslangan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday hamkorlik, adolatli yondashuv va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali soliq tizimi nafaqat qonunchilik talablariga, balki zamonaviy iqtisodiy voqeliklarga mos keluvchi holda rivojlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Timofeyeva, I. Yu. (2011). Nalogovaya bezopasnost gosudarstva, biznesa i obshchestva: konsepsiya i metodologiya. Avtoreferat dissertatsii.
2. Korovyakovskiy, D. G. (2013). Pravovoye obespecheniye informatsionnoy bezopasnosti v nalogovykh organakh. Avtoreferat dissertatsii.
3. Batarin, A. A., & Sorokin, A. A. (2016). Novyy poryadok primeneniya kontrolno-kassovoy texniki: realnost i perspektivy. Nalogovaya politika i praktika, № 2 (158), 30–35.
4. Advokatova, A. S. (2016). Nalogovyy kontrol primeneniya nalogovykh lgot i osvobozhdeniy pri realizatsii mer sotsialnoy podderzhki naseleniya. Ekonomika. Nalogi. Pravo, № 2, 151–158.
5. Goncharenko, L. I., & Advokatova, A. S. (2016). Sovremennyye formy nalogovogo kontrolya kak instrument obespecheniya byudzhethoy ustoychivosti. Innovatsionnoye razvitiye ekonomiki, № 6(36), 129–135.
6. Chernik, D. (2021). Vzaimosvyaz modeley povedeniya nalogoplatelshchikov i nalogovogo kontrolya. Ekonomika. Nalogi. Pravo, 10(5), 148–157.
7. Naydenova, T. A., & Novokshonova, Ye. N. (2022). Nalogovaya kultura kak neobkhodimoye usloviye obespecheniya napolnyaemosti byudzheta. Vestnik Buryatskogo gosudarstvennogo universiteta: Ekonomika i menedzhment, (1), 34–45.
8. To'lakov, U. (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirishning xorij tajribasi. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari, 2(3), 10–22.
9. To'lakov, U. (2024). Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2(9), 143–151.
10. To'lakov, U., & Bo'ronov, I. (2024). Sun'iy intellektning buxgalteriya sohasidagi istiqbollari. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 11(11), 29–32.
11. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi 474-I-son Qonuni.
12. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 21-sentyabrdagi "Soliq maslahati to'g'risida"gi O'RQ-55-son Qonuni (o'z kuchini yo'qotgan).
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida"gi Nizom. VM-320-son qaroriga 1-ilova.
14. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi" O'RQ-599-son Qonuni.
15. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 4-avgustdagi "Soliq maslahatiga oid faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-787-son Qonuni.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6098-son Farmoni.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-sentyabrdagi "Soliq maslahati sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4846-son Qarori.
18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi VM-1-son Qarori.



19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-292-son Qarori.
20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2023-yil yakunlari hisobotidan.
21. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi "Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko'tarish – ustuvor vazifamizdir" mavzusidagi nutqi.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100